

SHOLI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI VA UNING QISHLOQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

Bekzod Umarov Baxtiyorjon o'g'li

And QXAI assistenti

Shamshidinova Mushtariy Pattojon qizi

And QXAI talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sholi o'simligining xususiyatlari, morfologiyasi, anatomiyasi, biologik tasnifi, yetishtirilishi, qishloq xo'jaligidagi ahamiyati va unumdorligini oshirish uchun qilinishi lozim bo'lgan ishlar bo'yicha ilmiy ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *sholi, suv, ko'chat, urug', nav, hosil, ertapishar, kechpishar, oqsil, moy, kraxmal, harorat.*

Аннотация: *В данной статье представлены научные сведения об особенностях, морфологии, анатомии, биологической классификации, выращивании и работе, которую следует провести для повышения значения и продуктивности растения риса.*

Ключевые слова: *рис, вода, рассада, семена, сорт, урожай, ранний, поздний, белок, масло, крахмал, температура.*

Annotation: *This article presents scientific information on the characteristics, morphology, anatomy, biological classification, cultivation, and the work that should be done to increase the importance and productivity of the rice plant.*

Key words: *rice, water, seedling, seed, variety, harvest, early, late, protein, oil, starch, temperature.*

Kirish

Sholi-boshodoshlarga mansub bir va ko'p yillik o'simlik bo'lib, donli ekinlar qatoriga kiradi. Qadimiy makoni Xitoy va Hindiston bo'lgan. Sholi bahorgi issiqsevar va yorug'sevar qisqa kun o'simligi, urug'i tuproq harorati 10-12 gradus bo'lganda unib chiqadi. Vegetatsiya davri O'zbekistonda 100-145 kun davom etadi. Asosan sug'orib o'stiriladi. Tarkibida 76.1 % kraxmal, 17-54 % amilaza, oqsil, qand, yog' va vitaminlar mavjud. Donidan un, guruch, moy, spirt va pivo tayyorlanadi. Donidan tashqari poxoli ham qishloq xo'jaligida muhim ahamiyat kasb etadi. Undan sifatli qog'oz, karton, savat va boshqalar tayyorlanadi.

Sholi eng qimmatli oziq-ovqat ekinlaridan biri hisoblanadi. Dunyo dehqonchiligida u ekin maydoni va yalpi hosiliga ko'ra bug'doydan keyingi ikkinchi o'rinni egallaydi. Asosiy qismi janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlariga ekiladi. Mamlakatimizda esa asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Surxandaryo, Toshkent, Andijon viloyatlariga ekiladi.



Prezidentimizning “Sholi yetishtirishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorida 2021-yilda jami sholi maydonlarining kamida 20 foizida sholini ko‘chatlab ekish, 50 foizida sholini lazer uskunalari yordamida yer tekkislash tizimini joriy etish, keyingi yillarda esa bu ko‘rsatkichni yanada oshirish ko‘zda tutilgan.

Sholini eng qulay yetishtirish usullaridan biri urug‘idan emas, ko‘chatidan yetishtirishdir va bu usul jahon miqiyosida ham keng ommalashib ketgan. Ko‘chat usulida ekish natijasida o‘rta hisobda 5-6 ming m³ suvni tejash mumkinligi, urug‘ sarfi 3-4 marta kam bo‘lishi haqida aytilgan. Yer yuzida barcha sholi maydonlarining 95 foiziga ham shu usuldan foydalanib ekiladi. Respublikamizda sholi hosildorligini oshirish uchun yangi navlarni yaratish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, har bir gektar maydondan samarali foydalanish lozim. Bundan tashqari tuproq iqlim sharotimizga qaysi sholining navi mos kelishini atroflicha o‘rganish, navlar biologik xususiyatlarini hisobga olish, poxoli va donidan kerakli mahsulotlar tayyorlash sholichilik sanoatini yanada rivojlantiradi.



Sholipoyalarda tuproqqa asosiy ishlov berish turi-kuzgi shudgorlash hisoblanadi. Ekishdan avval qamish, ajriq kabi begona o‘tlardan va ularning urug‘lari

tuproqning yuza qismiga chiqib qoladi. Tuproqni quritish maqsadida qo'shimcha 1-2 marta haydash yoki 2-3 marta har 10-15 kunda 12-14 sm chuqurlikda chizellash kerak. Sholi maydonlarida suvni bir xil ushlab uchun yerni ± 5 sm qilib tekkislash zarur.

Yerni tekkislashda eng sodd va samarali qadimiy agrotexnika tadbiri, ya'ni suv bostirib tekkislash eng samarali usul hisoblanadi. Bu usul urug'likni suvda ekishda mo'ljallangan dalalarda amalga oshiriladi. Bunda ekishdan avval bir necha kun pollar 10 sm qalinlikda suv bilan to'ldiriladi. Keyin bir qancha agrotexnik tadbirlar amalga oshiriladi. Bunda quruq yerga ishlov berishga nisbatan suvni filtartsiyasi, texnikadan foydalanish, mehnat sarfi va xarajatlari bir necha marta kamayadi.



Xulosa shundan iboratki, sholi o'simligi harorat 20-30 gradus bo'lganda tez o'sadi va shu paytda unga o'g'it solish yaxshi natija beradi. Maqbul gullashi uchun havoning namligi 70-80 foiz bo'lishi kerak. Juda past namlikda (40 %) sholi gullamaydi. Bitta gul o'rtacha bir soat gullaydi. Bulutli havoda bu jarayon juda sekin davom etishi mumkin. Sholi o'simligidan samarali hosil olish uchun ertapishar, kechpishar, o'rtapishar navlarini ekish muddatlarini to'g'ri belgilash va qo'llash muhim hisoblanadi. Asosiy ekin sifatida ekish uchun kechpishar "Lazurniy", "Tarona", o'rtapishar "Iskandar" va mahalliy "Arpa-sholi" turlariga mansub bo'lgan devzira guruch beradigan navlarini ekish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Agrobank" ATB-2021
2. Sholi biologiyasi fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma **Andijon-2021**
3. Grunt suvining ekologiyaga ta'siri AQXAI assistenti-Bekzod Umarov
4. Adverse effects of Grunt water on ecology Bekzod Umarov Bakhtiyorjon son, Shamsiddinova Mushtariy Pattojon daughter
5. Grunt water formation and hydrogeological aspects Bekzod Umarov Bakhtiyorjon son, Shamsiddinova Mushtariy Pattojon daughter
6. Academic research in modern science, 2022 B Umarov, O Abduhalimova